

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION  
TEKNOLOGIYALAR AHAMIYATI

*Dilbar Ilauatdinova*

*Nukus innovatsion institute Maktabgacha va  
boshlang'ich ta'lim kafedrası Assistent o'qituvchisi*

*+998907357496*

*ilawatdinovadilbar@gmail.com*

**Annotatsiya:** maqolada ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim texnologiyasi, ta'lim metodlari, inovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni.

**Аннотация:** в статье рассматривается эффективное использование современных образовательных технологий для повышения качества образования.

**Ключевые слова:** образовательная технология, методы обучения, инновационные технологии, образовательный процесс.

**Abstract:** the article discusses the effective use of modern educational technologies to improve the quality of education.

**Key words:** educational technology, educational methods, innovative technologies, educational process.

Ma'lumki, bugungi kunda deyarli barcha zamonaviy o'quvchilar umumta'lim maktabiga o'qishga kirgunga qadar bilim va hatto axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lib keladi. Ular haqiqatan ham axborot asrida tug'ilib, zamonaviy aloqa qurilmalari, kompyuterlar va boshqa gadjetlar va ularning vazifalari bilan to'laqonli tushunib-tushunmagan holda ulg'ayib bormoqda. Bunda o'qituvchilarning eng muhim vazifasi o'quvchilarga ushbu qurilmalar va ulardan foydalanish qoidalari haqida boshlang'ich tushunchalar berishdan iborat. O'quvchilarda axborot olamidan o'zlari uchun to'g'ri ma'lumot tanlashning dastlabki salohiyatini shakllantirishda birinchi o'qituvchining o'rni muhim. O'qitish, ta'lim va tarbiya jarayonida nafaqat tushuntirish ishlari, balki boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish darajasi, o'quv dasturidagi boshqa asosiy fanlarni o'qitishda AKT ni joriy etish ham katta ahamiyatga ega. Dars sifatini oshirish jarayonida o'qituvchilar zamonaviy talablar asosida dars o'tish uchun AKT sohasida salohiyatga ega bo'lishlari zarur. Bu bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Umuman olganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi salohiyat tushunchasi insonning AKTdan foydalanish savodxonligini, ya'ni undan kundalik

hayotda va kasbiy faoliyatda to'g'ri foydalana olish qobiliyatini bildiradi. Kalit so'zlar: o'qituvchi, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, natija, metodlar, mahorat, mustaqil ta'lim, o'quvchi, texnologiyalar.

Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, o'quvchi e'tiborini bilimga jalb etish mushkul. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lmog'i darkor. Bunday holda, ayniqsa darsni o'yinlar asosida ko'rish tizimiga asoslanib o'tish sezilarli samara beradi. O'yinlar esa o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma'qul. Birinchi bo'lishga undash uslubi doimo o'zini oqlaydi. Chunki bolalar hamisha o'zini ko'rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Zamonaviy o'qitish usullari talabalarni darsga jalb etishda o'zaro ta'sirga asoslangan kompetensiyalarni shakllantirishning faol usullaridir. Pedagogning axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim salohiyati ularning malakasini oshirish orqali amalga oshiriladi. Dars sifatini oshirish uchun o'qituvchilar AKT bo'yicha malakalarini muntazam oshirib borishlari kerak.

Zamonaviy - kompetentli o'qituvchi tomonidan dars mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o'quv material shunday taqdim etilishi kerakki, u o'quvchining vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin. Zero, o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga innovatsion texnologiyalari jumladan, mediatexnologiyalardan foydalanish yordam beradi. Darsda mediatexnologiyalardan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir o'quvchiga individual-kreativ yondashish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, dars o'tishning interfaol usullari o'z-o'zidan ta'limga kirib kelmaydi. Demak, o'qituvchidan bilim, ijodiy mehnat va kasb mahorat talab qilinadi. Chunki o'qituvchi faoliyati yangilanmasa, ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi darslarning qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, faoliyatni umumiy nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo'l- yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi.

Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llanilishi, ayniqsa multimediali vositalardan foydalanish o'quv jarayoninig didaktiv ko'rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishda elektron darsliklarning alohida o'rni

mavjud. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi. Ta'lim tizimida o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilsa ta'lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta'lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o'quvchilarning o'quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Bugungi kun o'qituvchisi kompyuter va AKT va Internet tarmog'i imkoniyatlaridan keng foydalana olishi kerak. Pedagogik kadrlarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayoni axborot va axborot texnologiyalari tizimi haqida chuqur bilim berish zarur. Hozirgi vaqtda zamonaviy jihozlardan foydalanish axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tomonidan o'qitish jarayonida ta'minlanishi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishning muhim omil hisoblanadi.

Har qanday innovatsion texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy harakterdan kelib chiqqan holda, o'quvchilarni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni tarbiyalayotganiga bog'liq. Innovatsion texnologiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar talabalarning muhim hayotiy yutuq va muammolar shaxsiy munosabatlarini bildirishiga, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativ yondashuvni shakllantirishida innovatsion ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Shu bois ta'lim tizimiga yangi o'quv dasturlarini joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga innovatsion ta'lim texnologiyalari qo'llashga ham muntazam ravishda e'tibor qaratib borish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar. O'quv qullanma. Dadabaeva R.A., Nasridinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T., "Sanostandart", 2017.-552b.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va tizimlar. O'quv qullanma. Kenjabayev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2017-408b.

3. Пирназаров, Аллияр Бердибай Улы ИЖРО ҲОКИМИЯТИ ОРГАНЛАРИНИНГ ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ВАКОЛАТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ // ORIENSS. 2023. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/izhro-okimiyati-organlarining-davlat-hizmatlarini-k-rsatis-bilan-bo-li-vakolatlarining-u-u-iy-asoslari> (дата обращения: 08.11.2024).